

TALABALARING LINGVOKOGNITIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH.

M. O. Raximov

*Toshkent Xalqaro Moliya Menejmenti
va Texnologiyalari Universiteti katta o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Oliy ta'lif muassasalarida chet tillarini texnologik ta'lif orqali o'qitish an'anasi tobora kuchayib bormoqda, bu esa bo'lajak mutaxassislardan lingvistik va kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish, axborot texnologiyalari kompetensiyalarini egallashni talab qilmoqda. Kadrlar tayyorlashni modernizatsiya qilish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, interaktiv dasturiy ta'minotni joriy etish zarur.

Tayanch so'zlar: chet tillari, dasturiy ta'minot, ta'lifni modernizatsiya qilish, an'anaviy ta'lif, tilni rivojlantirish, kognitiv kompetentsiya, axborot texnologiyalari, interaktiv dasturiy vositalar, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, texnologik kompetensiyalar.

Аннотация: традиция преподавания иностранных языков в высших учебных заведениях через технологическое образование набирает обороты, требуя от будущих специалистов развития лингвистических и когнитивных компетенций, освоения цифровых технологий, приобретения информационно-технологических компетенций. Модернизация обучения, проведение научных исследований, внедрение интерактивных программных средств являются необходимыми.

Ключевые слова: иностранные языки, программные средства, модернизация обучения, традиционное обучение, языковое развитие, когнитивная компетенция, информационные технологии, инструменты интерактивных программных средств, проведение научных исследований, технологические компетенции.

Annotation: the tradition of teaching foreign languages in higher education institutions through technological education is gaining momentum, requiring future specialists to develop linguistic and cognitive competence, master digital technologies, and

acquire information technology competencies. Modernizing training, conducting scientific research, and introducing interactive software tools are essential.

Key words: foreign languages, software tools, modernizing training, traditional teaching, linguistic development, cognitive competence, information technology, tools of interactive softwares, conducting scientific research, technology competencies.

Jahon ta'lim rivojlanishining hozirgi bosqichida oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni texnologik ta'lim vositasida kasbga yo'naltirgan holda o'qitish an'anasi kuchaymoqda. Bu esa bo'lajak mutahassislarning lingvokognitiv kompetensiyasini rivojlantirish, innovatsion va raqamli texnologiyalarni puxta o'zlashtirish, axborot texnologiyalardan madsadga muvofiq foydalana olish kompetensiyalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Shu ma'noda mutaxassislarni tayyorlash jarayonini shakl va mazmunini zamonaviylashtirish bo'lajak filologlarga ingliz tilini texnologik ta'lim vositasida o'qitish mexanizmlarini amaliyatga tatbiq etish, interfaol dasturiy vositalarni ta'lim amaliyatiga kiritish kabi muammolar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilm-fan va ta'lim bo'yicha xalqaro tajribalar, forumlar va tashkilotlar chet tilni o'rganishning zamonaviy texnologik yechimlarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyanomalar ishlab chiqmoqda, xalqaro hamkorlikning me'yoriy asoslarini qo'llash bo'yicha yangi konsepsiyalardan foydalanmoqda. Jumladan, UNESCOning "Ta'lim 2030: Hamma uchun inklyuziv va adolatli sifatli ta'lim va umrbod ta'lim olish sari" deklaratsiyasi ga ko'ra talabalar o'z bilimlarini rivojlanayotgan texnologiyalarga muvofiq qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun ularga kognitiv va metakognitiv ko'nikmalar (masalan, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, o'rganish strategiyalarini bilish va o'zini o'zi boshqarish); ijtimoiy va hissiy qobiliyatlar (masalan, empatiya, o'z-o'zini rivojlantirish); sin'iy intelektual ko'nikmalar (masalan, ta'linda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish) kabilarni rivojlantirish kelajak ta'limi uchun alohida qayd etilgan. Chet tilni o'rgatuvchi yondashuvlar, usullar va vositalar doimiy

ravishda yangilaniib yoki turli omillar nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilmoqda, baholanmoqda va amaliyotga joriy qilinmoqda. Aloqa vositalarining tobora murakkablashib borayotgani va texnologiya yaratgan imkoniyatlar til ko'nikmalarini yangi maqsadlarga yo'naltirishda yangi konsepsiylarni ilgari surishni taqozo etadi. Bundan tashqari, globallashuvning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri, mehnat bozorining yangi talablari, raqobatbardoshlikka intilsh, madaniyatlararo aloqa muammolari va madaniyatning diversifikatsiyasi xorijiy tillarning zamonaviy jamiyat rivojlanishidagi roli haqida yangi istiqbollarni ochgan fenomenga aylandi. Chet tilni o'rganish nuqtai nazaridan bunday keng joriy etilgan imkoniyatlar ta'lim texnologiyasidan foydalanishga yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu o'zgaruvchan sharoitlar haqida ko'proq xabardor bo'lgan talabalar real sharoitlarda o'z ehtiyojlari uchun amaliy yechimlarni izlaydilar va ushbu jarayon bevosita bo'lajak filologlarning lingvokognitiv kompetensiyasini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib, bu ta'limning o'qituvchilarga yo'naltirilgan an'anaviy o'quv dasturidan tubdan voz kechishga va tegishli yondashuvlarni tatbiq etishning dolzarblini ko'rsatdi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish masalalari muhim ustuvor vazifalar qatoridan o'rinn egalladi. Yoshlarimiz chet tilni mukammal egallashlari, turli soha yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlarni asliyatdan o'qib o'zlashtirish, til o'rganilayotgan mamlakat sohiblari bilan erkin muloqot yurita olish kompetensiyalarini rivojlantirish kabi kommunikativ-kognitiv metodlar va yondashuvlar tatbiq qilina boshlandi. Natijada chet til o'qitish metodikasini zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish zarurati yuzaga chiqdi.

Til kishilik jamiyatini barpo etgan, uning taraqqiyotiga sabab bo'lgan va turli mamlakatlarni bir-biriga bog'lab turgan buyuk ne'mat, qudratli kuchdir. Shuning uchun tillarni o'rganishga hamisha katta e'tibor qaratib kelinganligi, til o'qitish metodlarini muntazam takomillashtirib borishga zamin yaratgan. Xususan, mamlakatimizda ta'lim sohasida o'tkazilgan islohotlar chet tillarni o'qitishda ham tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Xorijiy tillarni boshlang'ich sinflardan boshlab uzluksiz o'qitilshining yo'lga

qo‘yilishi davlat ta’lim standartlarini xalqaro talablar asosida takomillashtirish, ta’lim tizimining barcha bosqichlari uchun o‘quv dasturlari mazmunini yangilash, ta’lim jarayoniga yangicha yondashuv va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Jahon tajribasida tillarni o‘rganishda turlicha yondashuvlardan foydalanib kelingan va ular muntazam ravishda takomillashtirib borilgan. Jumladan, N.I.Gez o‘z davrida metodikada 4 ta asosiy (bixevoiristik, induktiv-ongli, kognitiv va integrativ) yondashuvlar mavjud deb ko‘rsatgan . M.N.Vyutnev esa chet tilni o‘rganishda 6 ta yondashuv (grammatik; to‘g‘ri; bixevoiristik; o‘qish orqali; guruh orqali; kombinatsiyalashgan-

individual) larni, G.V.Rogova esa ingliz tilni o‘rgatish 5 ta (ongli yondashuv (Cognitive approach), amaliy yondashuv (Practical approach), strukturali yondashuv (Structural approach), situativ yondashuv (Situational approach), turli xil yondashuv (Different approach)) larni taklif etgan.

Chet til ta’limining zamonaviy paradigmasi ta’lim jarayoni nafaqat o‘qituvchidan talabalarga mavzu bo‘yicha ma’lum bilimlarni uzatish, balki bo‘lajak filologlarning o‘z ta’lim tajribasini kengaytirish, degan fikrga asoslanadi. Ma’lum bir ta’lim yoki til tizimidagi muammoni hal qilish uchun ta’lim ma’lumotlarini mustaqil qabul qilish, to‘plash va qayta ishlash tajribasidir.

“Ta’lim” atamasining o‘zi insonning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tajribasini egallash bilan bog‘liq bo‘lgan, bilim, ko‘nikma, ijodiy faoliyat va dunyoga hissiy-qadriyatli munosabatda bo‘lgan shaxsning rivojlanishi va o‘zini anglash jarayoni sifatida talqin etiladi shu bilan birga moddiy va ma’naviy madaniyatni saqlash va rivojlantirish uchun shaxs va jamiyat faoliyatining zaruriy sharti hisoblanadi.

Endigi fikr va mulohazalarimiz “kognitiv” va “linvokognitiv” tushunchalarning tavsifiga doir bo‘ladi. XVIII asrda «kognitiv» tushunchasi ilk marta psixologiya sohasida o‘rganilgan. Keyinchalik 1950 yillarda psixolingvistlar Jerom Bruner va Devid Ausbellar tomonidan tilni o‘rganishda og‘zaki nutqni rivojlantirish jarayoniga tatbiq qilingan va ongli (kognitiv) fikrlashga ko‘proq e’tibor qaratilgan. D. Ausbel kognitiv yondashuvni - tilni o‘rganish va ishlatishni, idrok etish va anglashni o‘z ichiga olgan aqliy faoliyat deb

ta'riflaydi. O'qish nutqiy faoliyatida kognitiv yondashuvni qo'llaganimizda, biz ma'lumot va tushunchalarni aniqlashtirishga, tilni bosqichma-bosqich o'rganishga e'tibor qaratamiz deb ta'riflaydi. Kognitivlik (lotincha kognitio, "idrok, o'rganish, anglash") insonning tashqi axborotni aqliy idrok etish va qayta ishlash qobiliyatini anglatadi. Kognitiv jarayonlar tushunchasi ko'pincha "xotira", "diqqat", "idrok qilish", "harakat", "qaror qabul qilish" va "tasavvur" kabi jarayonlarga nisbatan qo'llaniladi.

Kognitiv tilshunoslikning rivojlanishida Sepir va Piagetning tadqiqotlari alohida e'tiborga loyiq. Ular insonning kognitiv rivojlanishida, sensorimotor intellektning rivojlanishidagi bosqichlar ketma-ketligi yordamida ma'lumot qayta ishlanadi, til hal qiluvchi rol o'ynaydi, lekin u ikkinchi darajali ammo asosiysi sensorimotor intellektdir deb ta'riflaydilar.

Tilni o'rganish darajasini rivojlantirish muammosi uzoq vaqtidan beri o'rganib kelinmoqda, u bir necha bor mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning asarlarida ko'tarilgan, bu yerda o'quv jarayonida turli uslubiy tamoyillarni hisobga olish zarurligi haqida savol tug'iladi. Masalan, o'qitishdagi subyekt-subyekt tamoyili bir vaqtning o'zida bilimdagi oldingi bo'shliqlarni to'g'rakash va bir vaqtning o'zida yangi materialni o'zlashtirish imkonini beradi, integratsiya tamoyili esa, bo'lajak filologlarning chet tildagi kognitiv kompetensiyasini shakllantirish uchun o'quv jarayoniga moslashtirish tartibini kiritadi. Bunday tadqiqotchilar orasida L.I.Apatova, Ya.M.Kolker, N.D.Lukina, E.A.Masliko, O.V.Nalitkina, B.V.Palchevskiy, I.D.Salistra , G.N.Saltovskaya va boshqalar. Asosan, bu tadqiqotlar nofilologik universitetlarga tegishli, chunki nofilologik universitetga kirishda siz chet tilni olishingiz shart emas.

So'nggi yillardagi asosiy vazifa – amaliy moslashtirishga ahamiyat qaratilmoqda. Chunki bo'lajak filologlar sun'iy ravishda yaratilgan sharoitda (sinfda bir-birlari bilan muloqot, yozuvlar, videofilmlar va h.k.) amalda tilni o'zlashtirdilar. Albatta, mahalliy va xorijiy adabiyotlarda quyidagi mualliflarning nazariy asoslangan va uslubiy ishlab chiqilgan kognitiv o'rganish kurslari mavjud: V.D.Arakin, T.T.Mixaylyukova, I.I.Panova, A.V.Savvateyeva va boshqalar. Ingliz tilning dasturlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan

amaliy kurslari ham mavjud, ularning mualliflari: L.I.Apatova , Ya.M.Kolker, N.D.Lukina, E.A.Masliko I.D.Salistra, G.N.Saltovskaya va boshqalar. Bu ishlar turli davrlarda, 1970 yildan to hozirgi kungacha paydo bo‘lgan va xususiyati shundan iboratki, bilimlarni moslashtirish, bir xil darajadagi guruhlarni tenglashtirish yoki bo‘lajak o‘qituvchilarni bir-biridan farqli guruhlarga bo‘lish universitetdagi o‘quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Zamonaviy o‘zgarishlar bo‘lajak filologlar bilimini motivatsion nazariyadan amaliyga o‘tishini talab qilmoqda. Ular boshqa madaniyat vakillari bilan chet tilda muloqot qilishlari orqali shaxsan o‘zlarini anglashlari mumkin. Madaniyatlararo tushunish va idrok qilish sharoitida chet tilni amalda qo‘llash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarining miqdori va sifati bo‘lajak filologarlarning lingvokognitiv kompetensiyasini tashkil qiladi.

Maktab va universitetda chet tillarini o‘qitishning zamonaviy maqsadi – chet tilning kommunikativ kompetensiyasini egallah va ikkinchi darajali shaxsnинг asosiy xususiyatlarini shakllantirish. Oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak filologlar tomonidan bilim, chet til ko‘nikmalari va malakalarini o‘zlashtirish, ona tilida so‘zlashuvchilar bilan doimiy aloqaning yo‘qligi tufayli cheklangan va bu cheklov biz ilgari gapirgan chet tilni bilish darajasini aniqlash zaruratini keltirib chiqaradi. Umumiy Yevropa tizimiga ko‘ra, A1 dan C2 gacha bo‘lgan tillarni bilishning oltita darjasasi mavjud. Bu yerda A1 – boshlang‘ich darjasasi, C2 –professional tilni bilish darjasasi. Taqdim etilgan darjalarning xarakteristikalari til o‘rganayotganlarda muloqot qilish ko‘nikmalarining har xil rivojlanish darajasiga, mos ravishda, nutqning har xil sifati, matnda til dizaynining me’yoriyligi, nutqning ravonligi darjasasi namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda chet tilni bilish darajasini diagnostika qilish tilni o‘rgatish ta’limining ajralmas qismiga aylandi. Cambridge ESOL, TOEFL, IELTS, TESOL, TEFL, TKT, CELTA, DELTA va shu kabi sertifikatlashtirish bo‘yicha ko‘plab imtihonlar mavjud bo‘lib, ular chet elda o‘qish yoki ishslash uchun chet tillarni bilish darajasini tasdiqlaydi. Chet til me’yorlarini o‘zlashtirish deganda, uni to‘liq yoki qisqa nutqiy muloqot shaklida unumli va sifatli qo‘llash uchun zarur bo‘lgan lingvokognitiv materialni o‘zlashtirishni o‘rganish tushuniladi, bu esa,

boshqacha aytganda, lingvokognitiv kompetensiyani, ya’ni talaffuz, leksika, grammatikani produktiv nutq faoliyatida o‘zlashtirishni anglatadi.

Adabiyotlar

1. Grammar is the sound, structure, and meaning system of language, ISAKHANOVA ZARINA SAIDVALIYEVNA TerSU, Uzbekistan,

<https://journalpro.ru/articles/the-role-of-grammar-in-learning-english-language/>

2. The Importance of Grammar in English Language Teaching: A Reassessment, Pradeep Kumar Debata, KIIT University (KIIT POLYTECHNIC)

https://www.researchgate.net/publication/279949868_The_Importance_of_Grammar_in_English_Language_Teaching_A_Reassessment

3. Raximov Mansur Odiljonovich Learning English at school is crucial in today’s world for several reasons // образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – т. 35. – №. 3. – с. 123-125.